



UDK:182.2

Ozodbek NAZARBEKOV,
Y.Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati insituti professori
E-mail: ozodbeknazarbekov544@gmail.com

Professor J.E. Eshnazarov taqrizi asosida

MADANIYAT VA SIYOSAT DIALEKTIKASI - NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada madaniyat va siyosat o'rtasidagi dialektik munosabatlar nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Maqolada madaniy siyosatning shakllanishi, institutsional omillari, raqamli transformatsiyadagi o'rni va xalqaro tajribalar (Turkiya, Janubiy Koreya, Fransiya) asosida O'zbekiston holati bilan qiyosiy tahlil olib borilgan. Xususan, yumshoq kuch (soft power), kreativ industriyalar, madaniyat diplomatiyasi va xalqaro indekslar (GCI, CDI, Soft Power Index) mezonida madaniy siyosatning natijadorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Maqolada SWOT tahlil, case-study va indikatorli yondashuv asosida amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Madaniyat siyosatini faqat estetik muhit emas, balki ijtimoiy-siyosiy boshqaruvning muhim vositasi sifatida baholash ushbu tadqiqotning asosiy yangiliklaridan biridir.

Kalit so'zlar: Madaniyat siyosati, siyosiy boshqaruv, yumshoq kuch, kreativ industriyalar, raqamli transformatsiya, xalqaro indekslar, O'zbekiston, Turkiya tajribasi, SWOT tahlil, madaniyat diplomatiyasi.

ДИАЛЕКТИКА КУЛЬТУРЫ И ПОЛИТИКИ – ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Аннотация

В данной статье анализируется диалектическая взаимосвязь культуры и политики с теоретической и практической точек зрения. Анализируются формирование культурной политики, институциональные факторы, её роль в цифровой трансформации, а также ситуация в Узбекистане на основе международного опыта (Турции, Южной Кореи, Франции). В частности, анализируются показатели эффективности культурной политики с точки зрения «мягкой силы», креативных индустрий, культурной дипломатии и международных индексов (GCI, CDI, индекс мягкой силы). В статье разрабатываются практические предложения на основе SWOT-анализа, кейсов и индикаторного подхода. Одним из основных нововведений данного исследования является оценка культурной политики как важного инструмента социально-политического управления, а не только эстетической среды.

Ключевые слова: Культурная политика, политический менеджмент, «мягкая сила», креативные индустрии, цифровая трансформация, международные индексы, Узбекистан, опыт Турции, SWOT-анализ, культурная дипломатия.

DIALECTIC OF CULTURE AND POLITICS - THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES

Annotation

This article explores the dialectical relationship between culture and politics from both theoretical and practical perspectives. The author analyzes the formation of cultural policy, institutional frameworks, the role of digital transformation, and international experiences (Turkey, South Korea, France) through comparative analysis with the case of Uzbekistan. Particular attention is given to the assessment of cultural policy based on soft power strategy, creative industries, cultural diplomacy, and international indexes such as the Global Creativity Index (GCI), Cultural Diversity Index (CDI), and Soft Power Index.

Key words: Cultural policy, political governance, soft power, creative industries, digital transformation, international indexes, Uzbekistan, Turkey experience, SWOT analysis, cultural diplomacy.

Kirish. Zamonaviy jamiyatlar taraqqiyotining gumanitar o'qi – bu siyosiy boshqaruv va madaniy taraqqiyot o'rtasidagi muvozanatga bog'liqdir. Madaniyat millat tafakkuri, identiteti va tarixiy xotirasi bilan bog'liq bo'lgan holda, siyosat uni yo'naltiruvchi, tartibga soluvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa globallashtirish va raqamli transformatsiya jarayonlari keskinlashgan bir davrda madaniyat va siyosatning o'zaro ta'siri yanada murakkab, ko'p qatlamli va strategik tus olmoqda. Bugungi kunda madaniyat faqatgina ijodiy-estetik muhit emas, balki jamiyatni birlashtiruvchi, fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi va siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi omil sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois dunyoning yetakchi davlatlarida madaniy siyosat alohida soha sifatida

shakllanmoqda va hukumatlar tomonidan ustuvor strategik yo'nalish sifatida ko'rilmogda. Xususan, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, AQSh kabi davlatlar madaniyatni geosiyosiy kuchga aylantirishni ustuvor maqsad deb bilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ushbu soha tubdan isloh qilinmoqda. Jumladan, 2022-yil 26-dekabrda PQ-5449-sonli Prezident qarorida madaniyat va san'at sohalarini davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida takomillashtirish vazifalari belgilandi [4]. Shuningdek, 2023-yil 22-dekabr kuni Prezident raisligida o'tkazilgan Ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha yig'ilishda madaniyatning ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy yuksalishdagi o'rni alohida

ta'kidlandi [5]. Madaniyatning siyosatga ta'siri, o'z navbatida, siyosatning madaniyatni qanday shakllantirishi, moliyalashtirishi va tartibga solishini chuqur tahlil qilish, ayniqsa post-sovet hududlarida dolzarb masalaga aylangan. Bu jarayonda Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya tajribalari ko'p qatlamli yondashuvlar asosida o'rganilmoqda. Masalan, Rossiya Federatsiyasida Lev Vostryakov kabi mutaxassislar madaniyat siyosatini davlat strategiyasining asosi deb hisoblaydi [1]. Janubiy Koreyada esa madaniy siyosat orqali ta'lim va texnologiya sohalari bilan integratsiyalashuv ustuvor yo'nalish sifatida olib borilmoqda [2].

Tarixda madaniyat siyosiy boshqaruv vositasiga aylantirilgan holatlar ko'p uchraydi. Totalitar rejimlarda (SSSR, XX asr Germaniyasi, Mao davridagi Xitoy) san'at va adabiyot siyosiy mafkurani targ'ib qilish quroli sifatida ishlatilgan. Bunday holatlarda madaniyat o'z mustaqilligini yo'qotadi, senzura kuchayadi, ijodiy erkinlik cheklanadi. Shuningdek, siyosatning haddan ortiq ideologik bo'lishi madaniy diversifikatsiyani yo'q qilishi, kreativ salohiyatni pasaytirishi mumkin [1]. O'zbekistonda bunday xavflarni bartaraf etish uchun Prezident qarorlarida "madaniyatni raqamli ochiqlik va kreativlik orqali rivojlantirish" g'oyasi ilgari surilmoqda [4]. Biroq bu yo'lda "ijtimoiy buyurtma" bilan ishlaydigan ijodiy guruhlar va byurokratik to'siqlarning kamaytirilishi zarur.

Bugungi davrda madaniy siyosatga quyidagi zamonaviy elementlar integratsiya qilinmoqda:

Raqamli transformatsiya. madaniy merosni raqamlashtirish, onlayn arxivlar, virtual muzeylar, NFT san'at obyektlari.

Indikatorli baholash. KPI (kalit natijaviy ko'rsatkichlar), ROI (sarmoyaning qaytimi), Creative Economy Index.

Yoshlar platformasi. Madaniyat markazlarida startaplar, inkubatsiya markazlari, ijodiy laboratoriyalar.

Kross-sektor integratsiya. Madaniyat + turizm, Madaniyat + ta'lim, Madaniyat + texnologiya.

Xalqaro indekslar va madaniy siyosat samaradorligi. Zamonaviy dunyoda madaniyat siyosatini baholashda xalqaro indeks va reytinglar muhim o'lchov vositasi aylangan. Bular orqali davlatlar o'zlarining madaniy salohiyatini global kontekstdagi raqobatbardoshligi, "yumshoq kuch" salohiyati, ijodiy industriyalar ulushi va milliy identitetni saqlashdagi muvaffaqiyat darajasini aniqlashlari mumkin.

1. Soft Power Index (Yumshoq kuch indeksi). Britaniyaning Brand Finance kompaniyasi tomonidan e'lon qilinadigan ushbu indeks 120 dan ortiq davlatning xalqaro ta'sirini baholaydi. Madaniyat, meros, san'at, media, ta'lim, diplomatiya kabi omillar asosida tuziladi. Masalan, 2023-yilgi hisobotda Janubiy Koreya kuchli o'nlikka kirib, "K-pop", "K-drama" va "K-culture" orqali o'z yumshoq kuchini kuchaytirgani ta'kidlangan [9].

2. Global Creativity Index (GCI). Toronto universiteti professori Richard Florida tomonidan ishlab chiqilgan ushbu indeks davlatlarning kreativlik salohiyatini o'lchaydi. U uch asosiy ko'rsatkichga tayanadi:

talent (ijodiy insonlar),

technology (raqamli rivojlanish),

tolerance (ochiqlik va xilma-xillik).

2022-yilda Shvetsiya, AQSh va Avstraliya yetakchi o'rinlarni egallagan. O'zbekiston esa hali bu indeksda ishtirok etmayapti, ammo 2024-yildan boshlab kreativ industriyalarni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilmoqda [10].

3. Cultural Diversity Index (CDI) - YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan. Bu indeks davlatlar madaniy xilma-xillikni saqlash, til va urf-odatlarini rivojlantirish, milliy madaniyatlarni jahon kontekstida targ'ib qilishdagi faoliyatini o'lchaydi. Fransiya, Kanada va Braziliya yuqori ball olgan. O'zbekiston "Ijod" jamg'armasi va "Ipak yo'li" festivali orqali ushbu yo'nalishda ijobiy siljish ko'rsatayotgani qayd etilgan [11].

4. World Press Freedom Index (Matbuot erkinligi indeksi). Madaniy ifoda erkinligi bilan bog'liq muhim indikatorlardan biri hisoblanadi. "Reporter Without Borders" tashkiloti tomonidan baholanadi. Erkin ijod va senzurasiz madaniyat siyosati uchun bu indeks muhim. O'zbekiston so'nggi yillarda bu borada 150-160-o'rinlar atrofida bo'lib, barqarorlikni saqlab kelmoqda [12].

Madaniyat siyosatini faqat ichki normativ asoslar bilan emas, balki xalqaro indekslar orqali ham baholash - bu zamonaviy yondashuvning muhim mezonidir. Shu orqali davlatlar o'zlarining madaniy siyosatini global darajadagi ijtimoiy kapitalga aylantira oladi. Ayniqsa, yumshoq kuch (soft power) va kreativ iqtisodiyot ko'rsatkichlari milliy madaniyat siyosatini raqamli transformatsiyaga moslashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Case-study - Turkiyada madaniyat siyosati va "yumshoq kuch" strategiyasi.

Sovuq urushdan keyingi davrda Turkiya xalqaro maydonda o'zining siyosiy va madaniy pozitsiyasini mustahkamlash uchun yangi yo'nalishlarga ehtiyoj sezdi. Yevropaga integratsiyalashish jarayonidagi murakkabliklar fonda, mamlakat "madaniyat orqali tashqi siyosat" konsepsiyasiga o'tdi.

2002-yildan boshlab Turkiya hukumati madaniyat va tarixiy merosni diplomatik vositaga aylantirish siyosatini rasman amalga oshira boshladi. Bu jarayon quyidagilar orqali shakllandi:

TIKA (Turkiya Hamkorlik va Koordinatsiya Agentligi) orqali 150 dan ortiq davlatda madaniy obidalarini ta'mirlash, kutubxonalar, madaniyat markazlari va maktablar tashkil etildi;

"Yunus Emre Enstitulari" 60 dan ortiq mamlakatda ochilib, turk tili va madaniyatini targ'ib qildi;

"Turkey Home" brendi va "Turkiye Scholarships" dasturi orqali xalqaro talabalarni jalb qilish va madaniy integratsiyani kuchaytirish maqsad qilingan;

2010-yildan boshlab, Istanbul YUNESKO tomonidan "Madaniy poytaxt" sifatida tan olingan, bu esa madaniy diplomatiyaga kuchli turtki berdi.

Natijalar esa quyidagicha:

TIKA orqali 2002-2022 yillarda 22 mingdan ortiq loyihalar amalga oshirilgan, ulardan 30 foizi madaniyat sohasiga oid [13];

Turkiya 2023-yilda Soft Power Indexda 21-o'rinni egalladi, bu 2010-yilga nisbatan 19 pog'onaga yuqorilashdir [14];

"Yunus Emre" tarmoqlari orqali har yili 50 mingdan ortiq xorijlik talaba turk madaniyati bilan tanishadi [15];

Turkiya Madaniyat va Turizm Vazirligining hisobiga ko'ra, madaniy turizm daromadlari 2023-yilda 11,6 milliard dollarni tashkil etdi [16].

O'zbekistonda amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan jihatlari:

Madaniy diplomatiya orqali xalqaro aloqalarni kengaytirish mumkin;

Tarixiy merosni saqlash — faqat ichki emas, global siyosat vositasi sifatida ham xizmat qiladi;

Til, turizm va ta'lim orqali “yumshoq kuch” strategiyasini kuchaytirish O'zbekiston uchun ham dolzarb yo'nalishdir;

“Buyuk ipak yo'li”, “Alisher Navoiy merosi” kabi brendlar asosida madaniy ta'sir doirasini kengaytirish imkoniyati mavjud.

Turkiya va O'zbekiston madaniyat siyosatining qiyosiy tahlili

Mezonlar	Turkiya	O'zbekiston
Madaniyat siyosati shakllanishi	2002-yildan boshlab strategik yo'nalish sifatida belgilangan	PQ-5449 qarori bilan sektor alohida yo'nalishga ajratildi
Madaniyat va tashqi siyosat integratsiyasi	Madaniyat orqali tashqi siyosat olib boriladi (kultürel diplomasiya)	Endilikda tashqi siyosatda "Ijod" brendi kuchaymoqda
Yumshoq kuch strategiyasi	Soft Power Indexda 2023-yilda 21-o'rinni egallagan	Hali Soft Power Indexga kirmagan, lekin strategiya ishlab chiqilmoqda
Madaniy diplomatiya vositalari	Yunus Emre tarmoqlari, TIKA loyihalari, festival diplomatiyasi	Ipak yo'li festivali, “O'zbekiston-2030” doirasidagi diplomatik madaniyat
Ijodiy industriyalar rivoji	Kinomatografiya, dizayn, musiqa eksporti kengaygan	Musiqa, milliy dizayn mahsulotlari, animatsiya rivojlanmoqda
Xalqaro reytinglardagi o'rni	Soft Power Indexda 21-o'rin (2023)	CDI va GCI indekslarida ishtirok hali zaif
Madaniyat + texnologiya yondashuvi	Virtual madaniy markazlar, digital media tarmoqlari	NFT san'ati, virtual muzeylar, raqamli arxivlar joriy qilinmoqda
Madaniyat eksporti	2023-yilda madaniy turizm daromadi 11,6 milliard dollar	Madaniyat eksporti bo'yicha alohida reja ishlab chiqilgan
Huquqiy asos va strategiyalar	“Kültür Politikası Strategik Planı”, Raqamli Madaniyat dasturi	PQ-5449, IJOD jamg'armasi, O'zbekiston-2030 strategiyasi

Tahlil va natijalar. O'zbekiston madaniy siyosatining strategik tahlili: SWOT yondashuvi asosida Madaniyat siyosatining samaradorligini baholashda SWOT tahlil metodologiyasi keng qo'llaniladi. U mavjud siyosatning kuchli (Strengths) va zaif (Weaknesses) tomonlarini aniqlash, shuningdek, rivojlanish imkoniyatlari (Opportunities) va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlar (Threats)ni baholash imkonini beradi. Quyidagi tahlil O'zbekistondagi madaniyat siyosatining real holatini strategik nuqtai nazardan ko'rib chiqishga xizmat qiladi.

KOMPONENT	TAVSIF	Izoh / Asos
Kuchli tomonlar (S)	- Boy tarixiy-madaniy meros (UNESCO ro'yxatiga kiritilgan 8 ob'yekt) - Milliy g'oya bilan integratsiyalashgan siyosat - Prezident qarorlari orqali tizimli yondashuv - “Ijod” jamg'armasi, “Ipak yo'li” festivali, “Milliy qadriyatlar oyligi” kabi dasturlar	[4], [5]; Shuningdek, Madaniyat vazirligi va UNESCO hisobotlariga asoslanadi.
Zaif tomonlar (W)	- Madaniy siyosat baholash tizimining yo'qligi (KPI, ROI kiritilmagan) - Hududlar o'rtasida infratuzilma farqlari (markaz – tuman tafovuti) - Raqamlashtirish sur'ati past - Ijodkorlarning huquqiy himoyasi sust (mualliflik huquqi)	Masalan, “Kreativ industriyalar to'g'risida” qonun loyihasi hali qabul qilinmagan.
Imkoniyatlar (O)	- Prezident qarorlari bilan sektor ustuvor soha sifatida belgilangan - Raqamli texnologiyalar (virtual muzeylar, onlayn platformalar) - Yoshlar bilan ishlovchi markazlar soni oshmoqda - Turizm + madaniyat sinergiyasi kuchaymoqda	PQ-5449, 2023-yildagi davlat dasturlari, “O'zbekiston-2030” strategiyasi asosida.
Tahdidlar (T)	- Siyosiy manipulyatsiya xavfi (madaniyat vosita sifatida ishlatilishi) - Ijodiy erkinlikka senzura ehtimoli - Globalizatsiya sababli milliy identitet zaiflashuvi - Bozor iqtisodida madaniyatning tijoratga aylanishi xavfi	Bu omillar Vostryakov va UNESCO tomonidan “madaniyat xavfsizligi” doirasida muhokama qilingan [1], [3].

Yuqoridagi SWOT tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda madaniyat sohasida mavjud kuchli tomonlar va imkoniyatlar raqamli texnologiyalar, ijodiy guruhlar va davlat siyosati orqali yanada kuchaytirilishi mumkin. Shu bilan birga, madaniy diversifikatsiyani cheklovchi byurokratik to'siqlar, senzura ehtimoli va milliy identitetning global kontekstdagi zaiflashuvi kabi tahdidlar ham jiddiy e'tiborni talab qiladi. Shuning uchun siyosat ishlab chiqishda indikatorli yondashuv, kreativ inkubatsiya va xalqaro hamkorlik alohida o'rin tutishi lozim.

Madaniyat va siyosat o'rtasidagi dialektik munosabatlar zamonaviy jamiyatlarning ijtimoiy barqarorligi, siyosiy legitimligi hamda milliy identitetining asosi sifatida namoyon bo'lmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, madaniyat siyosatini faqat estetik yoki ijodiy muhit bilan cheklab bo'lmaydi — u ijtimoiy kohiziya, yumshoq kuch strategiyasi, diplomatik vosita va raqamli

transformatsiya mezonlariga tayanadigan keng ko'lamli ijtimoiy boshqaruv tizimidir.

Xulosa. Xalqaro tajriba (Turkiya, Janubiy Koreya) shuni ko'rsatadiki, madaniyatni siyosiy boshqaruv vositasi sifatida muvaffaqiyatli yo'naltirish uchun quyidagi muhim omillar talab etiladi: institutlashtirish, huquqiy asoslarning aniqligi, kreativ industriyalarni qo'llab-quvvatlash, indikatorli baholash tizimi, fuqarolik jamiyati ishtiroki. O'zbekistonda so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda ijobiy siljishlar bo'layotgan bo'lsada, tizimlashtirish va xalqaro mezonlarga moslashish jarayoni hali yakunlanmagan. Raqamli madaniyat, yoshlar bilan ishlovchi kreativ inkubatsiya markazlari, festival diplomatiyasi va madaniy diplomatiya yo'nalishlari O'zbekistonning yumshoq kuch salohiyatini oshiruvchi asosiy yo'nalishlarga aylanishi mumkin.

Amaliy takliflar:

Madaniyat siyosatini indikatorlar orqali baholash tizimini joriy etish.

KPI (kalit samaradorlik ko'rsatkichlari), ROI (sarmoya rentabelligi), CDI, GCI, Soft Power kabi xalqaro indekslar asosida "Creative Policy Dashboard" platformasi ishlab chiqilsin.

Har yili madaniyat sohasida yutuqlar va muammolar tahlil qilinadigan Madaniyat hisobotlari e'lon qilinishi tavsiya etiladi.

Har bir hududda "Madaniyat + Texnologiya" inkubatsiya markazlarini tashkil etish.

Viloyatlarda kreativ yoshlar uchun virtual galereyalar, raqamli arxivlar, NFT platformalari, podkast studiyalarini o'z ichiga oluvchi Raqamli Madaniyat Markazlari ochilishi zarur.

Bu markazlar yoshlar siyosati va madaniyat vazirliklari bilan hamkorlikda boshqarilishi lozim.

Madaniy siyosatni fuqarolik jamiyati bilan integratsiya qilish.

Madaniyat sohasidagi NNTlar, ijodiy guruhlar, milliy merosni saqlovchi jamoaviy tashabbuslarni grantlar,

ijara imtiyozlari va soliq yengilliklari bilan qo'llab-quvvatlash zarur.

"O'zbekiston brendi"ni mustahkamlovchi madaniy diplomatiya strategiyasi ishlab chiqish

"Buyuk Ipak yo'li", "Alisher Navoiy merosi", "Baxshi san'ati" asosida global targ'ibot kampaniyalari olib borilishi kerak.

"Creative Uzbekistan" yoki "UzCulture+" nomli xalqaro madaniy forumlar tashkil etilishi taklif etiladi.

Qonunchilik bazasini takomillashtirish.

"Kreativ industriyalar to'g'risida"gi qonunni tezlashtirib qabul qilish, ijodkorlarning mualliflik huquqlarini himoya qiluvchi amaliy mexanizmlarni kuchaytirish lozim. Agar madaniyat va siyosat o'rtasidagi aloqalar institutsional ochiqlik, ijodiy erkinlik, raqamli moslashuvchanlik va xalqaro hamkorlik tamoyillari asosida qurilsa, bu O'zbekistonning madaniy siyosatini barqaror taraqqiyot, global raqobatbardoshlik va ijtimoiy uyg'unlik tamoyillariga moslashtirish imkonini beradi. Madaniyatni siyosatga bo'ysundirish emas, balki uni ijtimoiy poydevorga aylantirish bugungi strategik zaruratdir.

ADABIYOTLAR

1. Востряков Л.Г. Культурная политика в условиях глобализации. – М.: Академия, 2015. – 236 с.
2. Korea Arts & Culture Education Service. Cultural Policy in Korea. – Seoul, 2021.
3. UNESCO. Cultural Policies for Sustainable Development: Global Report. – Paris: 2022.
4. Президент Республики Узбекистан. Постановление №ПК-5449 от 26.12.2022 г. // <https://lex.uz/docs/6025749>
5. Prezident Shavkat Mirziyoyev. Ma'naviyat va ma'rifat sohasida yangi yo'nalishlar, 22.12.2023 // <https://president.uz/oz/lists/view/6941>
6. Dragičević-Šešić M., Dragojević S. Arts Management in Turbulent Times. – Amsterdam: ECF, 2020.
7. Creative Economy Report. Widening Local Development Pathways. – UNDP, 2022.
8. Zhuravleva A.A. Politika v sfere kulture: tendencii i problemy. – M.: Nauka, 2019.
9. Brand Finance. Global Soft Power Index 2023. – <https://brandfinance.com/soft-power>
10. Florida R. The Rise of the Creative Class. – New York: Basic Books, 2020.
11. UNESCO. Cultural Diversity for Development Indicators. – <https://en.unesco.org/creativity>
12. Reporters Without Borders. World Press Freedom Index 2023. – <https://rsf.org/en/index>
13. TIKA Annual Report – 2022. Ankara: TIKA Publishing. <https://www.tika.gov.tr/en/publications>
14. Brand Finance. Global Soft Power Index 2023. <https://brandfinance.com/soft-power>
15. Yunus Emre Institute Official Statistics – 2023. <https://yee.org.tr/en>
16. Turkish Ministry of Culture and Tourism. Annual Culture and Tourism Report 2023. <https://www.ktb.gov.tr>